



Andijon viloyatida

kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020- yil yanvar-sentabr

2020- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **69,1** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **12,9** birlikni tashkil qildi.

2020- yilning yanvar-sentabrda **6360** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xojaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **39,9** foizga ko'p.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2161 ta, sanoatda 2124 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 788 ta, qurilishda 369 ta, yashash va ovqatlanishda 226 ta, tashish va saqlashda 165 ta tashkil etilgan.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Sanoat
33,4 %



Savdo
34,0 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
12,4 %



Qurilish
5,8 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
3,6 %



Tashish va saqlash
2,6 %

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2019- y.	2020- y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	26297	30633	4336
Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni	birlikda	4546	6360	1814
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	71,0	69,1	-1,9
Sanoat	%	19,3	17,5	-1,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	99,0	98,7	-0,3
Investitsiya	%	65,6	69,5	3,9
Qurilish	%	96,0	92,8	-3,2
Savdo	%	88,1	88,1	0,0
Xizmatlar	%	69,0	66,7	-2,3
Yuk tashish	%	94,7	95,4	0,7
Yuk aylanmasi	%	69,6	68,1	-1,5
Yo'lovchi tashish	%	96,1	97,9	1,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	96,2	97,6	1,4
Eksport	%	66,2	43,7	-22,5
Import	%	14,7	13,1	-1,6



2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'pi Andijon shahrida - 1584 ta, Asaka tumanida - 580 ta, Shahrixon tumanida - 465 ta, Andijon tumanida - 385 ta, Baliqchi tumanida - 368 ta, Jalaquduq tumanida - 353 ta va Izboskan tumanida - 335 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich Xonobod shahrida - 110 tani tashkil etgan.

Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Andijon viloyati	4546	6360	1814
<i>shaharlar:</i>			
Andijon sh.	1282	1584	302
Xonobod sh.	138	110	-28
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	209	323	114
Andijon	332	385	53
Baliqchi	174	368	194
Bo'ston	157	254	97
Buloqboshi	149	267	118
Jalaquduq	177	353	176
Izboskan	250	335	85
Ulug'nor	81	144	63
Qo'rg'ontepa	235	320	85
Asaka	371	580	209
Marhamat	259	289	30
Shahrixon	352	465	113
Paxtaobod	202	280	78
Xo'jaobod	178	303	125



**2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra yangi tashkil
topgan kichik korxona va mikrofirmalarning
tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020- yilning yanvar-sentabr oylarida tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Andijon shahri – 24,9 %, Asaka tumani - 9,1 %, Shahrixon tumani 7,3 %, Andijon tumani - 6,0 %, Baliqchi tumani – 5,8 %, Jalaquduq tumani – 5,6 %, Izboskan tumani - 5,3 %, Oltinko'l tumani - 5,1 %, ga tegishli.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	(+;-)
Jami	4546	6360	1814
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	181	788	607
Sanoat	1248	2124	876
Qurilish	493	369	-124
Savdo	1772	2161	389
Tashish va saqlash	171	165	-6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	257	226	-31
Axborot va aloqa	76	92	16
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	95	107	12
Boshqa faoliyat turlari	253	328	75

Ma'lumot uchun: 2020- yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
Andijon sh.	1282	1584	302
Asaka tumani	371	580	209
Shahrixon tumani	352	465	113
Andijon tumani	332	385	53
Baliqchi tumani	157	368	211
Jalaquduq tumani	177	353	176
Izboskan tumani	250	335	85
Oltinko'l tumani	209	323	114

2020- yilning yanvar-sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Andijon shahrida - 1584 taga yetdi.




Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





Andijon viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Andijon shahrida 23,9 birlik, Ulug'nor tumanida 21,9 birlik, Xo'jaobod tumanida 16,4 birlik. Bo'ston tumanida 15,0 birlik, Xonobod shahrida 14,0 birlik, Asaka tumanida 12,6 birlik, Baliqchi tumanida 12,3 birlikni tashkil etgan. Izboskan tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib 8,0 birlikka to'g'ri keldi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



2020- yilning yanvar-sentabrda tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni* (har 1000 aholiga, birlikda)



Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



• **Eng yuqori ko'rsatkich**
Andijon shahri - 23,9 birlik;

• **O'rtacha ko'rsatkich**
Marhamat tumani - 11,9 birlik;


• **Eng past ko'rsatkich**
Izboskan tumani - 8,0 birlik;

Bundan ko'rinib turibdiki, Andijon shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Izboskan tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxona soni o'zgarmagan va eng past darajaga tushib ketdi.


Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini pasayish Dinamikasi, yanvar-sentabr holatiga ko'ra, % da

2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 69,1 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-sentabrida 71,0 %).

YaHMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.



Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)



**2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikni
tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy
tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
Andijon viloyati	17,5	92,8	66,7	69,5
<i>shaharlar:</i>				
Andijon sh.	20,7	93,0	39,7	58,5
Xonobod sh.	13,1	99,9	95,5	85,3
<i>tumanlar:</i>				
Oltinko'l	52,6	97,5	95,7	47,9
Andijon	68,1	86,5	92,5	75,0
Baliqchi	42,1	91,2	97,1	72,0
Bo'ston	65,6	97,1	93,2	53,1
Buloqboshi	100,0	100,0	95,4	89,4
Jalaquduq	77,3	83,3	96,6	81,6
Izboskan	91,3	100,0	95,3	65,2
Ulug'nor	57,7	64,8	97,1	87,2
Qo'rg'ontepa	41,1	74,6	97,0	80,1
Asaka	1,9	100,0	93,9	39,5
Marhamat	61,1	100,0	98,3	79,8
Shahrixon	84,1	100,0	97,2	87,7
Paxtaobod	59,2	100,0	96,4	91,2
Xo'jaobod	61,5	100,0	95,4	83,0

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

Sanoatda-

Buloqboshi (100,0 %),
Izboskan (91,3 %),
Shahrixon (84,1 %),
Jalaquduq (77,3 %),
Andijon (68,1 %),
Bo'ston (65,6 %) va
Xo'jaobod (61,5 %)
tumanlarida.

Qurilishda-

Buloqboshi (100,0 %),
Izboskan (100,0 %),
Asaka (100,0 %),
Marhamat (100,0 %),
Shahrixon (100,0 %),
Paxtaobod (100,0 %) va
Xo'jaobod (100,0 %)
tumanlarida.

Xizmatlarda-

Marhamat (98,3 %),
Shahrixon (97,2 %),
Baliqchi (97,1 %),
Ulug'nor (97,1 %),
Qo'rg'ontepa (97,0 %),
Jalaquduq (96,6 %), va
Paxtaobod (96,4 %)
tumanlarida.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabrida






Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Baliqchi tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Paxtaobod tumanida - 93,5 %, Marhamat tumanida - 86,6 %, Andijon tumanida - 84,8 %, Shahrixon tumanida - 75,7 %, Jalaquduq tumanida - 74,0 %, Qo'rg'ontepa tumanida - 71,9 % ni, eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 16,9 % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020- yil yanvar-sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Jalaquduq tumanida - 100,0 %, Buloqboshi tumanida - 100,0 %, Baliqchi tumanida - 100,0 %, Izboskan tumanida - 100,0 %, Ulug'nor tumanida - 97,1 %, Paxtaobod - 95,3 % va Shahrixon tumanida – 95,0 %. Eng past ko'rsatkich esa Asaka tumanida - 0,8 % ni tashkil etdi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Andijon shahri (845,6 mlrd. so'm), Shahrixon (433,5 mlrd. so'm), Izboskan (423,3 mlrd. so'm), Andijon (406,1 mlrd. so'm) va Xo'jaobod (320,1 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Ulug'nor tumanida (90,8 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






2020- yil yanvar-sentabr holatiga ko'ra jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da



Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Buloqboshi tumani (100,0 %), Izboskan tumani (91,3 %), Shahrixon tumani (84,1 %), Jalaquduq tumani (77,3 %), Andijon tumani (68,1 %) va Bo'ston (65,6 %) tumanlari tashkil etdi. Asaka tumanida (1,9 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.




2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Andijon shahri – 2217,3 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 102,7 %), Shahrixon tumani 1273,3 mlrd. so'm (94,5 %), Asaka tumani 1007,9 mlrd. so'm (93,7 %) va Qo'rg'ontepa tumani 720,4 mlrd. so'm (98,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.



2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Andijon shahri – 958,1 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 101,4 %), Andijon tumani 406,9 mlrd. so'm (100,5 %), Shahrixon tumani 242,9 mlrd. so'm (103,5 %), Paxtaobod tumani 148,5 mlrd. so'm (125,8 %) hamda Marhamat tumanida 144,1 mlrd. so'm (103,7 %) qayd etildi.





2020- yilning yanvar-sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Andijon shahri - 1690,7 mlrd. so'm (2019- yilning yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 93,4 %), Asaka tumani 404,5 mlrd. so'm (110,7 %), Shahrixon tumani 400,1 mlrd. so'm (104,5 %), Andijon tumani 368,1 mlrd. so'm (105,1 %) va Baliqchi 357,0 mlrd. so'm (103,4 %) tumani hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1019** ta respondentlar ishtirok etdi.

2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi* , % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - 5,1 % (52 ta.), sanoatda - 20,3 % (207 ta), qurilishda - 11,6 % (118 ta), savdoda - 31,5 % (321 ta), xizmatlar sohasida - 31,5 % (321 ta) ni tashkil etdi.


* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.



2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 2,1 punktga, sanoat korxonalarida 3,1 punktga oshdi. Aksincha qurilish korxonalarida 6,9 punktga, savdo sohasida 0,6 punktga, xizmatlar sohasida 3,4 punktga pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 7,8 punktga, xizmatlar sohasida 0,7 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,3 punktga, sanoat korxonalarida 6,3 punktga, savdo sohasida 1,7 punktga, pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 5,2 punktga, sanoat korxonalarida 3,2 punktga, savdo sohasida 2,3 punktga, xizmatlar sohasida 2,7 punktga ko'payishi kuzatildi. Aksincha qurilish korxonalarida 0,9 punktga pasayishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019-2020- yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020- yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 8,3 punktga, savdo sohasida 3,5 punktga oshdi, qolgan barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi sanoat korxonalarida 10,5 punktga, qurilish korxonalarida 28,2 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 6,5 punktga, savdo sohasida 4,0 punktga, xizmatlar sohasida 0,8 punktga kamayishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi sanoat korxonalarida 2,6 punktga, savdo sohasida 0,5 punktga, xizmatlar sohasida 1,0 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1,8 punktga, qurilish korxonalarida 2,2 punktga kamayishi kuzatildi.




Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019-2020- yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020- yilning III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **188** ta respondentlar qatnashgan. Shundan sanoat korxonalari - 61 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 32,4 % i), qurilish - 11 ta (5,9 % i), savdo – 67 ta (35,6 % i), xizmatlar - 29 ta (15,5 % i), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 20 ta (10,6 % i).

2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2020- yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020- yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 9,7 punktga, savdo sohasida 1,6 punktga oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 25,0 punktga, sanoat korxonalari 10,1 punktga, xizmatlar sohasida 2,3 punktga pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 40,0 punktga, sanoat korxonalarida 40,5 punktga, xizmatlar sohasida 0,2 punktga punktga oshdi. Aksincha qurilish korxonalarida 9,7 punktga, savdo sohasida 3,9 punktga pasayishi kuzatildi.

Joriy yilning II choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushi savdo sohasida 2,3 punktga, xizmatlar sohasida 2,1 punktga, oshdi. Aksincha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 15,0 punktga, sanoat korxonalarida 30,4 punktga pasayishi kuzatildi.



2019-2020- yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020- yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha kamayishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi barcha faoliyat turlari bo'yicha o'sishi kuzatildi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 4,8 punktga kamayishi kuzatildi.



2019-2020- yillar III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da





**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi
Ishbilarmonlik muhiti
kuzatuvlari, tadbirkorlikni
rivojlantirish statistikasi bo'limi**

Tel.: (0374) 224-82-49